



“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASIDA YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Qurbonova Marhabo Oybek qizi

Andijon Davlat universiteti

Huquq-Iqtisod fakulteti

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy ongini shakllantirish va fuqarolik faolligini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar o‘rganildi. Shuningdek, yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va mulohazalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston – 2030 strategiyasi, yoshlar siyosati, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy savodxonlik, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, huquqiy ta‘lim.

Abstract. This article analyzes the issues of developing youth legal culture within the framework of the “Uzbekistan – 2030 Strategy”. The study examines reforms aimed at improving legal awareness, legal literacy and civic activity among young people. The research also identifies existing problems in the development of youth legal culture and proposes recommendations for their solution. The results show that the development of youth legal culture plays an important role in ensuring the rule of law and strengthening civil society.

Keywords: Uzbekistan–2030 strategy, youth policy, legal culture, legal awareness, legal literacy, civil society, rule of law, legal education.



Аннотация. В данной статье анализируются вопросы развития правовой культуры молодежи в стратегии «Узбекистан – 2030». В ходе исследования рассмотрены меры по повышению правовой грамотности молодежи, формированию правового сознания и развитию гражданской активности. Также выявлены существующие проблемы в процессе развития правовой культуры молодежи и предложены пути их решения. Результаты исследования показывают, что развитие правовой культуры молодежи играет важную роль в обеспечении верховенства закона и укреплении гражданского общества.

Ключевые слова: стратегия Узбекистан – 2030, молодежная политика, правовая культура, правовое сознание, правовая грамотность, гражданское общество, верховенство закона.

Sayyoramizning ertangi farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev¹.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan yosh avlodning bilim darajasi, ma‘naviyati va huquqiy madaniyatiga bog‘liq. Huquqiy madaniyat – bu shaxsning qonunlarga hurmat bilan qarashi, huquq va majburiyatlarini bilishi hamda jamiyatdagi huquqiy tartibni saqlashga intilishidir. Shu sababli yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi².

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularning huquqiy ongini shakllantirish hamda fuqarolik mas‘uliyatini kuchaytirish masalalari davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etadi³. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakat taraqqiyotining muhim yo‘nalishlarini belgilab

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Vatan va xalq haqida o‘ylar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2025. – B. 30-35

² Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2008. – B. 70-75

³ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1997. – B. 130-140



beruvchi hujjat bo‘lib, unda yoshlarning ta‘limi, ma‘naviyati va huquqiy madaniyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan⁴.

Mazkur strategiyada yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda huquqiy davlat qurish jarayonida faol ishtirok etishini ta‘minlash kabi vazifalar belgilangan.⁵

Hozirgi kunda yoshlar jamiyatning eng faol qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ularning huquqiy bilimga ega bo‘lishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Huquqiy madaniyat nafaqat qonunlarni bilish, balki ularga amal qilish, fuqarolik mas‘uliyatini his qilish va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha olishni ham anglatadi. Yoshlarning huquqiy madaniyati ularning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham zamonaviy ta‘lim tizimida yoshlar huquqiy savodxonligini oshirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi

Metodlar. Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy tahlil, taqqoslash hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, huquqiy madaniyatni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalar o‘rganildi.⁶

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning bir qator muhim yo‘nalishlari belgilab berilgan.⁷

Birinchidan, yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish orqali ularning jamiyat hayotidagi faolligini kuchaytirish maqsad qilingan. Bu jarayonda ta‘lim muassasalarida huquqiy fanlarni chuqur o‘qitish, yoshlar o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlarning faol ishtirokini ta‘minlash strategiyaning muhim vazifalaridan biridir. Bu yoshlarning huquqiy

⁴ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. – Toshkent: “Yangi O‘zbekiston”, 2023. – B. 18-25

⁵ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. – Toshkent: “Yangi O‘zbekiston”, 2023. – B. 18-25

⁶ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. – Toshkent: “Yangi O‘zbekiston”, 2023. – B. 18-25

⁷ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. – Toshkent: “Yangi O‘zbekiston”, 2023. – B. 18-25



ongini shakllantirish hamda ularning davlat va jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish zarur hisoblanadi.⁸

To'rtinchidan, yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda davlat organlari, ta'lim muassasalari hamda jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik orqali yoshlar o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlari samaradorligini oshirish mumkin.

Beshinchidan, yoshlarni huquqiy tarbiyalash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish muhimdir. Ayniqsa, interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, bahs-munozaralar va huquqiy treninglar yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish yo'nalishlari

Yo'nalish	Mazmuni
Huquqiy ta'limni rivojlantirish	Ta'lim muassasalarida huquqiy fanlarni chuqur o'qitish
Huquqiy targ'ibot ishlari	Seminar, trening va davra suhbatlari, ma'naviy tadbirlar o'tkazish
Fuqarolik faolligini oshirish	Yoshlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishga jalb qilish
Raqamli huquqiy ta'lim	Internet platformalari orqali huquqiy bilimlarni targ'ib qilish

1-jadval

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish bir nechta muhim yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishlar yoshlarning

⁸ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston – 2030 strategiyasi. – Toshkent: "Yangi O'zbekiston", 2023. – B. 18-25



huquqiy savodxonligini oshirish, ularning fuqarolik faolligini kuchaytirish hamda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Muhokama. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud.

Birinchidan, ayrim yoshlarning huquqiy bilimlari yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa ularning o'z huquq va majburiyatlarini to'liq anglamasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, huquqiy targ'ibot ishlari ayrim hududlarda yetarli darajada olib borilmayapti. Bu esa yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonini sekinlashtiradi.

Uchinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan huquqiy ta'lim jarayonida yetarlicha foydalanilmayapti.

Shu sababli yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun zamonaviy yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.⁹

Shuningdek, ayrim yoshlar o'rtasida huquqiy axborot manbalariga qiziqish yetarli darajada shakllanmaganligi ham kuzatiladi. Natijada ular o'z huquq va majburiyatlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan noto'g'ri yoki asossiz huquqiy ma'lumotlar ham yoshlarning huquqiy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli yoshlarni ishonchli huquqiy axborot manbalari bilan ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa. Yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Chunki huquqiy madaniyatga ega bo'lgan yoshlar jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va davlat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishda muhim rol o'ynaydi.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasi yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan strategik hujjat hisoblanadi. Ushbu

⁹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008. – B.70-75



strategiya yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularning fuqarolik faolligini kuchaytirish hamda huquqiy ongini shakllantirishga xizmat qiladi.¹⁰

Strategiyada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish orqali yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish hamda jamiyatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash mumkin.

Taklif va mulohazalar. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ta'lim muassasalarida huquqiy fanlarni o'qitish sifatini yanada oshirish.
2. Yoshlar o'rtasida huquqiy targ'ibot tadbirlarini kengaytirish.
3. Huquqiy bilimlarni targ'ib qilishda internet va raqamli platformalardan keng foydalanish.
4. Talaba-yoshlar o'rtasida huquqiy savodxonlikka oid tanlovlar va ilmiy konferensiyalar tashkil etish.
5. Huquqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev. Sh.M. Vatan va xalq haqida o'ylar. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2025. 448-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston – 2030 strategiyasi. Toshkent: “Yangi O'zbekiston”, 2023.117-b
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008.176-b
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Toshkent: “O'zbekiston”, 1997. 326-b

Internet saytlari:

1. www.lex.uz
2. <https://president.uz>

¹⁰ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston – 2030 strategiyasi. – Toshkent: “Yangi O'zbekiston”, 2023. – B. 18-25